

savollar.

1-savol: Yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktorligi (PhD) uchun mustaqil izlanuvchilikka qabul qilish uchun qanday hujjatlar zarur?

Javob: Mustaqil izlanuvchilikka talabgor quyidagi hujjatlarni ilova qilgan holda ariza bilan ilmiy tashkilot yoki ta'lim muassasasiga daraja.ilmiy.uz orqali murojaat qiladi:

qisqacha biografik ma'lumotnoma;

falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun mustaqil izlanuvchi sifatida rasmiylashtirish uchun magistrlik yoki klinik ordinatura (tibbiyot fanlari uchun) yoki oliy ma'lumot (mutaxassislik dasturi bo'yicha) to'g'risidagi diplom nusxasi;

mehnat daftarchasining belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxasi;

ilmiy ishlar ro'yxati va ularning nusxasi (*falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya tadqiqoti asosini tashkil qilishi mumkin bo'lgan ilmiy natijalar, shu jumladan ilmiy jurnallarda chop etilgan kamida bitta maqola hamda tegishli yo'nalishlar bo'yicha ikkitadan kam bo'lmagan ilmiy ishlar to'plamlariga kiritilgan ma'ruza tezislari*);

ish joyidan tavsifnoma.

2 - savol: Mustaqil izlanuvchilik uchun qabul qachon amalga oshiriladi?

Javob: Ilmiy tashkilot va ta'lim muassasalari talabgorlarning mustaqil izlanuvchilikka hujjatlarini qabul qilish yilning har choragida davomida amalga oshiriladi.

3 – savol: Doktorantura uchun qabul qachon amalga oshiriladi?

Javob: Tayanch doktoranturaga kirish imtihonlari va doktoranturaga kirish uchun suhbat har yili 1 — 25-noyabr davrida o'tkaziladi.

4 – savol: Xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutlariga o'qishga qabul qilish tartibi qanday?

Javob: Xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni (O'zbekiston Respublikasi hududida istiqomat qilayotgan fuqaroligi bo'lmagan shaxslar bundan mustasno) oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutlariga o'qishga qabul qilish O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga va/yoki xalqaro shartnomalarga muvofiq to'lov-kontrakt asosida amalga oshiriladi

5 – savol: Bakalavriat ta'limi yo'nalishi va magistratura mutaxassisligi ta'limning turli sohalariga tegishli bo'lganda oliy ta'limdan keying ta'lim bosqichini amalga oshirish imkoni bormi?

Javob: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’limdan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 304-sonli Qarorining 6-bandiga ko‘ra Oliy ta’limdan keyingi ta’lim institutiga qabul qilinayotgan magistr yoxud klinik ordinaturaga (tibbiyot fanlari uchun) yoki mutaxassislik dasturlari bo‘yicha (1997-yilgacha) olingan oliy ma’lumot to‘g‘risidagi diplomga ega bo‘lish, fan nomzodi, falsafa doktori (PhD) yoki unga tenglashtirilgan xorijiy mamlakatlarda ilmiy darajaga ega bo‘lganlar mutaxassisligi oliy ta’limdan keyingi ta’lim ixtisosligi tegishli bo‘lgan fan sohasiga muvofiq bo‘lishi shart. Fan sohalari mos kelmaganda yoki oliy ta’limdan keyingi ta’limda fanning turdosh sohalari bo‘yicha olish rejalashtirilganda talabgorlar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi (keyingi o‘rinlarda OAK deb ataladi) belgilagan fanlar bo‘yicha qo‘shimcha imtihonlar topshirishi lozim.

Bakalavriat ta’limi yo‘nalishi va magistratura mutaxassisligi ta’limning turli sohalariga tegishli bo‘lganda, OAK tomonidan belgilagan fanlar bo‘yicha qo‘shimcha imtihonlar topshirish sharti bilan, bakalavriat ta’limining yo‘nalishiga tegishli bo‘lgan ta’lim sohasiga muvofiq bo‘lgan mutaxassislik bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun doktorlik dissertatsiyasining belgilangan tartibda tayyorlanishiga va himoya qilinishiga yo‘l qo‘yiladi.

6 – savol : Magistratura bosqichi mavjud bo‘lmagan, o‘quv yil 5 yil bo‘lgan olit ta’lim muassasalari tomonidan berilgan diplom bilan ham oliy ta’limdan keyingi ta’lim institutiga hujjat topshirsa bo‘dimi?

Javob: OTMlarda ilk magistrlar tayyorlash jarayoni 1999–2000-o‘quv yilidan yo‘lga qo‘yilganligi sababli magistratura bosqichi mavjud bo‘lmagan, o‘quv yil 5 yil bo‘lgan olit ta’lim muassasalari tomonidan berilgan diplom bilan oliy ta’limdan keyingi ta’lim institutiga hujjat topshirishda diplom berilgan oliy ta’lim muassasi tomonidan diplomning ta’lim darajasi to‘g‘risida ma’lumot ham taqdim etish maqsadga muvofiqdir.

7 – savol: O‘zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasining oliy ta’limdan keying ta’lim bosqichiga qanday ixtisosliklar bo‘yicha tadqiqotchilar qabul qilinadi?

Javob: O‘zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017- yil 22- maydagi 304-son qarori talablariga muvofiq 12.00.02 - Konstitutsiyaviy huquq. Ma’muriy huquq. Moliya va bojxona huquqi, 12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi. Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq, 12.00.04 - Fuqarolik protsessual huquqi. Iqtisodiy protsessual huquqi. Hakamlilik jarayoni va Mediatsiya, 12.00.05 - Mehnat huquqi. Ijtimoiy ta’minot huquqi, 12.00.07 - Sud hokimiyati. Prokuror nazorati. Huquqni muhofaza qilish faoliyatini tashkil etish. Advokatura, 12.00.08 - Jinoyat huquqi. Jinoyat-ijroiya huquqi, 12.00.09 - Jinoyat protsessi. Kriminalistika, tezkor-qidiruv huquq va sud ekspertizasi, 12.00.10 - Xalqaro huquq ixtisosliklari bo‘yicha

doktorantura, tayanch doktorantura va mustaqil izlanuvchilik uchun tadqiqotchilar qabul qilinadi.

8 – savol: O‘zbekiston Respublikasi Odil sudlov qanday ixtisosliklar bo‘yicha himoyalarni amalga oshiriladi?

Javob: 12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi. Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq hamda 12.00.04 – Fuqarolik protsessual huquqi. Iqtisodiy protsessual huquqi. Hakamlik jarayoni va Mediatsiya ixtisosliklari bo‘yicha ilmiy darajalar beruvchi PhD.27/2025.27.12.Yu.01.02 raqamli va 12.00.07-Sud hokimiyati. Prokuror nazorati. Huquqni muhofaza qilish faoliyatini tashkil etish. Advokatura, 12.00.08 - Jinoyat huquqi. Jinoyat-ijroiya huquqi, 12.00.09 - Jinoyat protsessi. Kriminalistika. Tezkor-qidiruv huquq va sud ekspertizasi ixtisosligi bo‘yicha ilmiy darajalar beruvchi DSc.27/2025.27.12.Yu.01.01 raqamli ilmiy kengashlar faoliyati yo‘lga qo‘yilgan.

9 – savol: Dissertatsiyani ilmiy seminar majlisida muhokama qilish uchun qanday hujjatlar talab etiladi?

Javob: Ilmiy seminarga taqdim etiladigan hujjatlar ro‘yxati:
1. Dissertatsiya bajarilgan muassasaning dissertatsiyani himoyaga qabul qilish yoki Bir martalik ilmiy kengash tuzish haqidagi murojaati.

2. Izlanuvchi to‘g‘risidagi ob‘yektiv-ma‘lumotnoma va uning elektron shakli yozilgan.

3. Izlanuvchining oliy ta‘lim muassasasini bitirganligi to‘g‘risidagi diplomi nusxasi.

4. Fan nomzodi, falsafa doktori (PhD) yoki unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy daraja diplomining nusxasi (fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgor uchun).

5. Malakaviy imtihonlarni topshirganligi haqidagi guvohnomalar (falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga talabgor uchun).

6. Dissertatsiya bajarilgan muassasaning xulosasi.

7. Dissertatsiya muhokama qilingan tashkilotlar xulosalari (agar mavjud bo‘lsa).

8. Izlanuvchining dissertatsiya bajarilgan muassasa tomonidan tasdiqlangan ilmiy ishlari ro‘yxati, asosiy ilmiy ishlari nusxalari.

9. Ilmiy rahbar (maslahatchi)ning taqrizi.

10. Fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgor uchun fan nomzodi yoki falsafa doktori (PhD) yoxud unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy daraja dissertatsiyasi avtoreferati.

11. Hammualliflikdagi ilmiy ishlarni dissertatsiyaga to'la yoki qisman kiritish uchun hammualliflarning yozma ravishda bildirgan roziligi.

12. Dissertatsiya va dissertatsiya avtoreferati.

13. Antiplagiat. (qo'lyozma bilan qo'shilgan)

10 – savol: Qanday tartibda tadqiqotchilar faoliyati nazorati amalga oshiriladi?

Javob: Oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutlari mavjud bo'lgan ilmiy va ta'lim tashkilotlari har yili 2-marta (iyun va dekabr oylarida) izlanuvchilar faoliyatini ichki monitoring qiladi.